Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320124

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA BANDLIKNING O'SISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH

TURSUNOVA MANZURAXON XOJIAKBAR QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Statistika ta'lim yo'nalishi bo'yicha 4-bosqich bitiruvchi talabasi

Annotatsiya. So'nggi yillar mobaynida jahon miqyosida xizmat ko'rsatish sohasiga bo'lgan talab ortib, o'sib borish tendensiyasini yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatlar istiqbolini belgilab, yetakchi pog'onali davlatlar qatoridan o'rin egallashiga xizmat qiladi. Biz bu tadqiqot yordamida bandlikning sektorlarda rivojlanganligini, huquqiy jihatdan qarorlar va ularning ijrosini, o'rganilayotgan mavzu doirasidagi termin va tushunchalarni, tadqiqotni o'rganish uchun hissa qo'shgan professor-o'qituvchilarning ilmiy ishlarini, tadqiqotning nazariy, ilmiy asoslarini, iqtisodiyotning negizidagi rolini, ahamiyati qanchalik muhim ekanligini jahon va mamlakatimiz miqyosida o'rganamiz.

Аннотатции: В последние годы спрос на услуги вырос и создает устойчивую тенденцию во всем мире. Это, в свою очередь, определяет перспективы стран и помогает им занять место среди ведущих стран. В рамках данного исследования мы изучим развитие занятости в различных секторах, правовые решения и их реализацию, термины и понятия в рамках изучаемой темы, научные работы профессоров и преподавателей, внесших вклад в исследование, теоретические и научные основы исследования, его роль в экономике и его значение как в глобальном масштабе, так и в нашей стране.

Annotation: In recent years, the demand for the service sector has increased and is creating a growing trend worldwide. This, in turn, determines the prospects of countries and helps them take their place among the leading countries. With the help of this study, we will study the development of employment in sectors, legal decisions and their implementation, terms and concepts within the scope of the topic under study, the scientific works of professors and teachers who contributed to the study, the theoretical and scientific foundations of the study, its role in the economy, and how important it is, both globally and in our country.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, ijtimoiy soliq, bandlikning o'sishi, aholi soni, eng yuqori ko'rsatkich, xizmatlar joylashuvi indeksi, raqamli boshqaruv yetuklik indeksi, elektron ishtirok indeksi, turistlar oqimi, turizm infratuzilmasi, rasmiy qarash, iqtisodiy qarash, sektor, ishlab chiqarish xarakteri, band, endogen, ekzogen, reflektor, innovatsion muhit.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI

Published: 05.06.2026

Cite this article: Tursunova Manzuraxon Xojiakbar qizi (2026). Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikning o'sish tendensiyalarini statistik tahlil qilish. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320124

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ключевые слова: сектор услуг, социальный налог, рост занятости, население, пиковый показатель, индекс размещения услуг, индекс зрелости цифрового управления, индекс электронного участия, туристический поток, туристическая инфраструктура, официальная точка зрения, экономическая точка зрения, сектор, производственный характер, занятость, эндогенный, экзогенный, отражающий фактор, инновационная среда.

Keywords: services sector, social tax, employment growth, population, peak indicator, service location index, digital governance maturity index, e-participation index, tourist flow, tourism infrastructure, official view, economic view, sector, production character, job, endogenous, exogenous, reflector, innovative environment.

Olimlarning izlanishlari tufayli dunyoning 4 tomonidan o‘rganilib kelinayotgan bir zamonda, mamlakatlar rivojlanish bosqichining xizmat ko‘rsatish sohasiga bo‘lgan talab va ko‘lami ortib, ma’lum bir tendensiyalarni yaratmoqda. Dastavval mamlakatlar rivoji savdo-sotiq bilan ko‘rilgan bo‘lsa, hozirda xizmat ko‘rsatish, ayniqsa, IT va dasturlash sohasiga e’tibor qaratilgan va shu o‘rinda aytish joizki, mamlakatimizda aynan shu sohalarni rivojlantirish uchun jarayonlar olib borilmoqda. Bu borada mamlakatimiz prezidentining 2025-yil 27-fevral kuni PQ-78-sonli “Xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori imzolangan. Ushbu qaror mamlakatda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Qaror ijrosiga keladigan bo‘lsak, joriy yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha muhim maqsadlar belgilanib berilgan. Jumladan, xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish, 3 million kishini daromadli ish bilan ta’minlash va 52,2 mingga yaqin yangi xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish reja qilingan. Bunga qo‘shimcha ravishda, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli prezident qaroriga muvofiq, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirilganligini qayd etib o‘tishimiz kerak. Bu o‘z navbatida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. [142]

So‘nggi yillarda bandlikning o‘sishi ko‘plab mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasida kuzatilgan. Bu o‘sish aholi sonining oshishi, urbanizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalar va iste’molchilarning talablarining o‘zgarishi, shunga mos ravishda, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, sohani rivojlantirish, elektron tijorat yoki IT, dasturlash kabi yo‘nalish ko‘lami oshishi, sifat nazorati bilan bog‘liq. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘sish iqtisodiy barqarorlikni

142 https://uz24.uz/uz/articles/xizmat-25-2-28

ta’minlashda, balki ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Avvalambor, bunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rgangan holda bandlik va uning sohalardagi ulushlilik qiymati, tendensiyalar, statistik tahlil o‘zi nima va uning o‘rganish usullari, kuzatuvlarni qanday, qay yo‘sinda olib borilishi haqida qisqa bo‘lsa-da bilishimiz kerak.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakunida xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 47,4 %, bandlikdagi ulushi 55,4 % ni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan aholi soni 7,9 million kishini tashkil etgan. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar soni 310,8 mingtaga yetdi, bu 2017-yilga nisbatan 1,6 barobarga ko‘p. Jahon bankining baholashicha, O‘zbekiston 2017-2023-yillarda xizmatlar sohasidagi qo‘shilgan qiymatning o‘sish sur’ati yiliga 6,5 foizni tashkil etib, Markaziy Osiyodagi eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatgan. Qozog‘istonda bu ko‘rsatkich 2,5 foiz, Qirg‘izistonda 3,1 foiz va Tojikistonda 5,2 foizni tashkil etgan. Mamlakatda ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi so‘nggi 8 yilda 2,5 barobarga oshgan, ayniqsa, moliyaviy xizmatlar 7,6 barobar, axborot va aloqa xizmatlari 4,9 barobar, ta’lim xizmatlari esa 3,2 barobar o‘sganligini qayd etildi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar soni, ming/kishi.	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1452,4	1480,2	1401,8	1436,4	1405,4	1535,6	1525,2	1586,1	1504,8
Tashish va saqlash	638,2	654,9	645,2	646,1	610,5	654,2	633,1	640,4	601,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	308	313,3	301,9	315,3	302,8	341,1	348,8	367,2	363,5
Axborot va aloqa	63,6	64,3	62,7	62,2	58,7	70,5	77,3	87,8	98,6

Moliyaviy va sug`urta faoliyati	66,5	72	73,5	75,8	72,5	70,4	69,6	73,4	79
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	69,3	69,3	66,7	62,4	53,4	63,2	62,2	64,9	63,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	135,4	140,9	141,5	140,9	131,6	138	135,7	139,2	144,4
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	73,6	76,1	76,1	95,4	98,4	100,2	108,1	108,7	107,5
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	599,2	577,8	631,7	636,6	635,9	637,3	636,8	637,9	634,9
Ta'lim	1105,6	1106,6	1111,7	1134,4	1158,2	1220,5	1268,7	1299,5	1320,2
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	601,6	602,6	604	616,7	669,5	650,8	671,3	694,8	695,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	65,1	65,3	65,6	66	67	70,2	71,7	71,9	66,6
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1407,2	1508,9	1545,1	1562,2	1358,2	1358,2	1534,1	1560,3	2252,4
summa	**6585,**	**6732,**	**6727,**	**6850,**	**6622,**	**6910,**	**7142,**	**7332,**	**7931,**

	7	2	5	4	1	2	6	1	8

1-jadval. O‘zbekiston respublikasida bandlikning xizmat ko‘rsatish sohalari kesimidagi statistikasi, ming.kishida (manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2)

Mamlakatimiz xalqaro miqyosda ham turli pog‘onalarda munosib o‘rinlarni egallamoqda. Misol uchun, 2023-yilda e’lon qilingan xalqaro xizmatlar joylashuvi indeksida (GSLI) 78 ta mamlakat ichida 40-o‘rinni egallagan. Unda mamlakatning biznes uchun moliyaviy jozibadorligi yuqori baholangan. Shuningdek, raqamli boshqaruv yetuklik indeksida (GTMI, 2024) 43-o‘rinni egallab, 2020-yilga nisbatan 37 pog‘ona yuqorilagan. Elektron ishtirok indeksida esa mamlakat 53-o‘ringa chiqib, raqamli xizmatlar yuqori rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin oldi. Indeks bahosi 0,699 ni tashkil etgan. 2024-yilda turizm xizmatlar sohasida eng katta ulush 22,4 foizni tashkil etdi, bu 2017-yildan buyon ularning hajmi 2,1 barobarga oshganligini ko‘rsatdi. Shu yili O‘zbekiston 8 million sayyohni qabul qildi va Markaziy Osiyoda turistlar oqimining o‘sishi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi. Yiliga o‘sish sur’ati 20,1 foizni tashkil etdi, turizm va sayohatlar rivojlanish indeksida (TTDI) 119 davlat orasida 78-o‘rinni egallab, 2024-yilning o‘zida 16 pog‘ona yuqorilagan. Bu natijalar turizm infratuzilmasi, raqamli xizmatlar (onlayn band qilish, virtual turlar) hamda viza rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi (e-visa) bilan erishildi. Hozirda turistik xizmatlar eng tez o‘suvchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. 2024-yilda xizmatlar eksporti 7,2 milliard AQSH dollarini tashkil etib, mamlakat umumiy eksporti hajmining 26,7 foizini egalladi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulushni turizm 3,5 milliard dollar (48,8 foiz) va transport 2,6 milliard dollar (35,7 foiz) tashkil etgan.[143] Bu esa xizmatlar sektori iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikning o‘sish tendensiyalarini statistik tahlil qilish iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikning o‘sish tendensiyalarini statistik usullar yordamida aniqlash unga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni baholashdan iborat. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sektorining rivojlanishiga va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini aniqlashga, bandlik darajasini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Agar shaxsiy qarashlarda o‘zimizning kunlik yumushlarimiz xizmat deb atalsa, **rasmiy qarash**da ish yoki biron-bir safar, **iqtisodiy qarash**da esa xizmat ko‘rsatish, ya’ni butun bir **soha** “**sektor**” deb tushuniladi.[144] Shaxsning rivojlanib kamol topishi uchun avvalo

[143] https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-xizmatlar-sohasi-iqtisodiy-osishning-asosiy-drayveriga-aylanmoqda_734527#:~:text=2024%20yilda%20xizmatlar%20sohasining%20yalpi%20ichki%20mahsulotdagi,2020%20yilda%20bu%20ko'rsatkich%2041%2C6%20foiz%20bo'lgan.

[144] https://uz.wiktionary.org/wiki/xizmat

o‘ziga, keyinchalik atrofdagi jamiyatiga e’tibor qaratishi zarur bo‘lgani kabi mamlakatlarda ham ayni shunday, har bir davlatning rivojlanishi: iqtisodiyoti va uning tashkiliy tuzilmalariga bog‘liq. Har bir davlat maqomiga ega mamlakatlar o‘zining ramziy belgilari, boshqaruvchi organlari, armiyasi, qonunlari, aholisi mavjud. Bulardan eng muhim omil “aholi” hisoblanadi, negaki aholi davlatning tayanch dastagidir. Bu nazariya davlat rahbarimiz **Sh. M. Mirziyoyev**ning ko‘plab nutqlarida eshitgan, jumladan, davlat dasturlari (harakatlar strategiyasi) ning bosh tamoyiliga aylangan: “**Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak**” ,- degan da’vatli so‘zlarida o‘z tasdig‘ini topgan.

Jamiyat bu — biz, butun boshli xalq. Davlat — bizni o‘rab turgan muhit, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechadigan maydonning, ya’ni jahonning bir bo‘lagi. Biz ana shu jahonni bilish, ko‘rish ilinjida har kuni qandaydir yumush bilan shug‘ullanamiz, bu — yashash uchun kurash. Biz kurashishda davom etar ekanmiz, davlatning jahon maydonidagi o‘rni oshib boradi, rivojlanadi. Demak, mulohaza qiladigan bo‘lsak, davlatni rivojlanish dastagi inson omili ekan, davlat munosib shart-sharoit yaratsagina, dastak sifatini a’lo darajada bajaradi. Davlatning rivojlanganlik darajasi uning iqtisodiyotiga qarab baholanadi, davlat iqtisodiyoti turli sektor (tarmoq, soha) larga bo‘linib ketadi.

Ishlab chiqarish xarakteriga ko‘ra to‘rt asosiy sektorga bo‘linadi: xomashyo yetishtiruvchi birlamchi (qishloq xo‘jaligi), qayta ishlovchi ikkilamchi (sanoat), xizmat ko‘rsatuvchi uchlamchi va axborotlashtirishga asoslangan to‘rtlamchi sektorlar. Mulkchilik shakliga ko‘ra davlat va xususiy sektorga bo‘linib ketadi.[145] Bu sektorlar inson yashayotgan hayoti davomida egallagan qunt, bilimlari mahsuli. Davlatning jahon minbarida roli bo‘lishi, mana shu sektorlarda faoliyat yuritib turgan mamlakat aholisiga bog‘liq. Insonlarning qiziqishi qaysi sohada eng ko‘p bo‘lsa, shu soha rivojlanib boraveradi. Xozirgi, sun’iy intellekt rivojlanayotgan bir paytda, dunyo mamlakatlarining qariyb **70-80 foizi** xizmat ko‘rsatish sohasidagi ilmiy, ijtimoiy izlanishlarga asosiy diqqat-e’tiborini qaratgan, bu sohaning so‘nggi yillardagi iqtisodiyotning eng istiqbolli sektorlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Har narsaning o‘z o‘rni, joyi bo‘lgani kabi, sohaning ham **iqtisodiyotdagi mohiyati** bor:

1. **Xizmat ko‘rsatish moddiy ko‘rinishga ega emas, u nomoddiylik va unga egalik qilinmaydi.** Xizmatlarni saqlash, tashish yoki egalik qilish mumkin emas; ular ishlab chiqarish nuqtasida iste’mol qilingan tajriba yoki harakatlar sanaladi.


145 https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiyot_(fan)

2. **O‘zi uchun qiymat yaratadi.** Bunda tajriba, mehnat va ko‘maklashish orqali iqtisodiyotga ma’lum qiymat qo‘shadi, diqqatni xomashyodan inson omiliga qaratadi.

3. **Iqtisodiyotda omil sifatida qaraladi.** Rivojlangan mamlakatlarda u YaIM va bandlikning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.

4. **Ijtimoiy va iqtisodiy rolga ega.** Moliyaviy oldi-sotdi jarayonlardan tashqari, u ta’lim, sog‘liqni saqlash va himoya kabi ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi. 146

Asosiy **iqtisodiy xususiyatlari**ga keladigan bo‘lsak: ishlab chiqarish bilan solishtirganda mehnatning asosiy ish beruvchisi sifatida bandlikni shakllantiradi; xizmatlarning jismoniy mahsulotlarga integratsiyasini kuchaytiradi; xizmatni kelajakda foydalanish uchun saqlab bo‘lmaydi, kelajakda u natijaga aylanadi.147 **Soha tarkibi** ham iqtisodiy faoliyati turidan kelib chiqib, xilma-xil yo‘nalishlariga ega. Xizmat ko‘rsatish sohasini o‘rganishda quyidagilarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:148



Kundalik ehtiyojlarga xizmat qiladi	Ish va biznes faoliyatiga xizmat qiladi

Sog‘liqni saqlash xizmati	Maslahat xizmati
Maishiy xizmat	Axborot xizmati
Ta’lim xizmati	Reklama xizmati
	Ijara xizmati

146 https://studyguides.com/study-methods/study-guide/cmmc2dw0gijxd0190vpt8o6aq#

147 https://www.geeksforgeeks.org/business-studies/service-sector-meaning-importance-benefits-and-types/

148 https://ilmiyhujjat.uz/product/iqtisodiyot-xizmat-korsatish-sohalari

	Boshqa xizmatlar

I bob. 1.1-grafik. Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqib bo‘linish tarkibi (manba: https://alldata.uz/product/aholiga-xizmat-korsatish-sohalari)

Har bir yo‘nalish o‘z tarkibida sohaning kichik bo‘lagini qamrab oladi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu — ehtiyojiy hisoblangan xizmatlar, ya’ni xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi bo‘lmagan barcha xizmat ko‘rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste’molchilarga ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha hisoblangan to‘lovlar (QQS va aksizsiz) hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lishi, umuman olganda, real oldi-sotdi obyekti bo‘lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to‘liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinadi. Iste’molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar yoki elektron pullar orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Yurtimizda xizmat ko‘rsatish sohasiga qaratilgan imkoniyatlar shubhasiz yuqori baholanmoqda, jumladan bu so‘nggi davr statistik ma’lumotlar salmog‘ida ham o‘z aksini topgan. Misol uchun, 2026-yil yanvar-fevral oylari sohaning qay darajada rivojlanganini o‘tgan yillarga nisbatan solishtirib bilib olishimiz mumkin. 2026-yilning yanvar-fevral oylarida mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 91 984,4 mlrd so‘mni, boshqacha qilib aytganda, umumiy bozor xizmatlari hajmining 54,7 %ini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davri bilan solishtirganda 115,7 %ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg‘ona (73,8 %), Namangan (73,2 %), Qashqadaryo (72,8 %), Surxondaryo (72,5 %), Jizzax (72,3 %), Andijon (71,7 %), Xorazm (71,3 %), Toshkent (71,0 %), Buxoro (70,0 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (69,5 %) kuzatildi (hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi). Toshkent shahrida esa kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (40,3 %) bo‘lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo‘yicha eng yuqori bo‘lib, 26 997,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Samarqand va Navoiy viloyatlari kabi ba’zi hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan

ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 7 763,4 mlrd so‘mni, Navoiy viloyatida esa 2 260,2 mlrd so‘mni tashkil etadi.

	Hajmi, mlrd. so‘mda	Jami hajmdagi ulushi,%da	O‘sish sur’ati, %da
O‘zbekiston Respublikasi	91984.4	54.7	115.7
hududlar:			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3865.9	69.5	116.6
Andijon viloyati	5852.1	71.7	112.3
Buxoro viloyati	4599.1	70.0	115.4
Jizzax viloyati	2684.9	72.3	114.4
Qashqadaryo viloyati	6003.8	72.8	113.7
Navoiy viloyati	2260.2	56.1	114.3
Namangan viloyati	6342.1	73.2	117.0
Samarqand viloyati	7763.4	62.3	112.7
Surxondaryo viloyati	3974.7	72.5	115.2
Sirdaryo viloyati	1478.3	66.4	116.3
Toshkent viloyati	7751.3	71.0	110.6
Farg‘ona viloyati	8242.0	73.8	114.6
Xorazm viloyati	4169.0	71.3	115.1
Toshkent shahri	26997.6	40.3	116.9

1.1-jadval. 2026-yil yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo‘yicha kichik tadbirkorlik ko‘rsatkichlari (manba: https://stat.uz/uz)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilash va ularni monitoring qilish ko‘zda tutilgan bir qancha kuzatuv va tahlillar olib borildi. Natija shuni ko‘rsatadiki, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o‘sishiga moliyaviy xizmatlar (20,8 %ga, umumiy o‘sishda aholining 3,6 foizi band bo‘lishiga hissa qo‘shdi), savdo xizmatlari (19,8 %ga, aholining 3,0 foizi band), yashash va ovqatlanish xizmatlari (14,9 %ga, aholining 2,7 foizi band), transport xizmatlari (8,3 %ga, aholining 1,7 foizi band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (17,7 %ga, aholining 1,5 foizi band), ta’lim sohasidagi xizmatlar (21,2 %ga, aholining 0,8 foizi band), boshqa xizmatlar (13,1 %ga, aholining 0,7 foizi band) shuningdek, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (15,5 %ga, aholining 0,4 foizi band)ning o‘sishi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

	2025-yil (mlrd so‘m)	2026-yil (mlrd so‘m)	O‘sish sur’ati (%)
Xizmatlar – jami	137965,4	168182,9	115,4
shundan:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	11542,4	14776	117,7
moliyaviy xizmatlar	23641,7	29825	120,8
transport xizmatlari	28262	31505,5	108,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	13527	16354,7	109,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	25327,9	31562,9	114,9
savdo xizmatlari	21033,1	26348,2	119,8
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3666,9	4300,8	115,5
ta’lim sohasidagi xizmatlar	5446,6	6799,2	121,2
sog‘liqni saqlash xizmatlari	3019	3548,6	109,7
ijara xizmatlari	1879,8	2273,7	112,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	2078,4	2436,9	111,6
shaxsiy xizmatlar	2922,2	3490,9	109,1
me’morchilik, muhandislik izlanishlari va texnik sinovlar	1730,9	2151	115,9
boshqa xizmatlar	7414,5	9164,2	113,1

1.2-jadval. 2026-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (manba: https://stat.uz/uz)

Shuningdek, me’morchilik sohasidagi xizmatlar (15,9 %ga), ijara xizmatlari (12,8 %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari (11,6

%ga), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (9,7 %ga) va shaxsiy xizmatlar (9,1 %ga) o‘sib, 1,0 foizi aholi bandligi o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga erishildi. 2026-yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 18,8 %, transport xizmatlari 18,7 %, moliyaviy xizmatlar 17,7 %, savdo xizmatlari 15,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 8,8 %, ta’lim sohasidagi xizmatlar esa 4,0 % ulushni egalladi. Transport xizmatlari hajmi 31 505,5 mlrd. so‘mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari 51,9 %, yoki 16 354,7 mlrd. so‘m hajm bilan ustunlik qiladi. Transport xizmatlari hajmining o‘sishi turizm, logistika, ichki va tashqi savdo faoliyati, elektron tijoratning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yuk va yo‘lovchilar tashishga bo‘lgan talabning ortishiga olib keldi.[149]

Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotda innovatsion g‘oyalar muhiti ta’siriga bog‘liq. Insonlar turli yumushlarni, turmush darajalari, yashash sifati, salomatliklari kabi ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan talablarini yengillashtirish maqsadida yangi g‘oyalar-innovatsion g‘oyalarni o‘zlari bilgan va bilmagan holda kashf etishadi. Bu o‘z navbatida, raqobat muhiti rivojlanib, xizmatlarga nisbatan yangi ehtiyojlar shakllanishiga olib keladi. Innovatsion muhitning shakllanishi bilan xizmatlar sohasida quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

— **endogen o‘zgarishlar** – tashqi muhit ta’sirida yuzaga keladigan ichki o‘zgarishlar;


— **ekzogen o‘zgarishlar** – xizmat ko‘rsatish korxonalarining bozor imkoniyatlarini oshirish yoki saqlab qolish, yangi bozor segmentlariga kirib borish orqali yuzaga keladigan o‘zgarishlar;

— **reflektor o‘zgarishlar** – innovatsion jarayonlar natijasida yangicha munosabatlarga moslashish va “teskari aloqa” tamoyili asosida ichki tizimda yuzaga keladigan transformatsiyalar.

Xizmatlar sohasining innovatsion muhiti — bu yangi bilimlar, yangicha iste’mol madaniyati, ishlab chiqaruvchilar (Oliy ta’lim muassasalari, universitetlar, akademik soha, mustaqil tadqiqotchilar, ixtirochilar) hamda innovatsion jarayonni uzatuvchilar (ilmiy-amaliy ishlanmalar, patentlar, litsenziyalar, buyurtmalar), investorlar, innovatsion infratuzilma subyektlari, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi subyektlar, shuningdek, innovatsion jarayon natijalarini iste’mol qiluvchi (xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsiyalarni joriy etish istagi, tayyorligi va ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi) subyektlarni yaxlit qamrab

149 https://stat.uz/img/news/analitika-02_2026-zb-lotin_p49692.pdf

oluvchi murakkab tizim. Xizmatlar sohasining innovatsion muhitini quyidagicha tasvirlash mumkin: **150**



1.2-grafik. Xizmatlar sohasining innovatsion muhiti (manba: https://media.neliti.com/media/publications/665962-xizmatlar-sohasida-innovatsion-muhitni-y-b45da890.pdf)

150 Phd. Ibodov.K.M., mus.izl. Xolboyev. J.A. Xizmatlar sohasida innovatsion muhitni yaratishning dolzarb masalalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot -2025-yil, iyun. №. 6-son - B. 687-691. https://media.neliti.com/media/publications/665962-xizmatlar-sohasida-innovatsion-muhitni-y-b45da890.pdf

Xizmatlar sohasida innnovatsion muhit shakllanganidan so‘ng o‘z-o‘zidan aholi bandligi ham kengayib borishi kuzatiladi. Misol uchun, avvaliga insonlar otli ulovlarda yurishdi, keyinchalik o‘zi yurar foytun, ya’ni hozirgi mashinalargacha kashf qilindi, endilikda bu mashinalarga quvvatlantirish uchun yoqilg‘i quyish shaxobchalari, mashinalar nosoz bo‘lib qolsa — ustaxonalar, tozalash uchun avtosalonlar, dam oldirib turish uchun esa avtomobil qo‘yish yo‘laklari bor. Bu ham o‘z navbatida yangi ish o‘rinlari yaratishga, aholining ma’lum qismini ishsizlar qatoridan bandlar sirasiga o‘tishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://uz24.uz/uz/articles/xizmat-25-2-28
2. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-xizmatlar-sohasi-iqtisodiy-osishning-asosiy-drayveriga-aylanmoqda_734527#:~:text=2024%20yilda%20xizmatlar%20sohasining%20yalpi%20ichki%20mahsulotdagi,2020%20yilda%20bu%20ko'rsatkich%2041%2C6%20foiz%20bo'lgan
3. https://uz.wiktionary.org/wiki/xizmat
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiyot_(fan)
5. https://studyguides.com/study-methods/study-guide/cmmc2dw0gijxd0190vpt8o6aq#
6. https://www.geeksforgeeks.org/business-studies/service-sector-meaning-importance-benefits-and-types/
7. https://ilmiyhujjat.uz/product/iqtisodiyot-xizmat-korsatish-sohalari
8. https://stat.uz/img/news/analitika-02_2026-zb-lotin_p49692.pdf
9. Phd. Ibodov.K.M., mus.izl. Xolboyev. J.A. Xizmatlar sohasida innovatsion muhitni yaratishning dolzarb masalalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot - 2025-yil, iyun. №. 6-son - B. 687-691. https://media.neliti.com/media/publications/665962-xizmatlar-sohasida-innovatsion-muhitni-y-b45da890.pdf

STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —